

ABDULLA QAHHORNING “AYB KIMDA?” HIKOYASINING TARBIYAVIY
AHAMIYATI

Qung'irov Shahobiddin

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 4-bosqich talabasi

shakhobiddin1405@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli o'zbek hikoyanavisi Abdulla Qahhorning “Ayb kimda?” hikoyasi tahlilga tortildi. Asarda ota-ona farzandi uchun vaqt topolmay majlisga bormasligi, o'zining bergan tarbiyasidan ko'ngli to'lmay boshqalarni ayblashi haqida so'z bordi. Unda maktab o'quvchisi Hamdam va uning oilasidagi muhit yoritib berishga harakat qilindi. Ota-onalar majlisiga chaqirilgan Hamroyev va Sobiraxon ayalar dastlab majlisga borib, hamma muammo o'qituvchilarda ekanligini aytaman deb bod-bod gapirib, shu kuni kelganida bormay qolishining qay darajada noto'g'ri ekanligi muhokama qilindi. O'g'li ota-onang nega kelmadi deb muallim so'rsa nima qilaman degan savoliga, otasi kap-katta bolasan bir bahona topib qo'yaver deyishining bola tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, yolg'on, majlis, ota-ona, o'qituvchi

Bir insonning avvalo o'zi qolaversa, jamiyat, kelajak uchun qiladigan eng katta ishi bu farzand tarbiyasiga diqqatli bo'lish, uni to'g'ri qilib tarbiylashdir desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki farzand tarbiyasi o'ta muhim jarayondir. Bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi aynan tarbiyaga borib taqaladi. Oila esa shunday jarayonning boshlanishi va nihoyasidir desak adashmagan bo'lamiz. Buning uchun erkak va ayol ham teng javobgardir. Agar ota-ona mo'min, qobil insonlar bo'lsa katta ehtimol bilan farzandlari ham shunday bo'ladi. Aksincha, salbiy illatlarga ega insonlarning zurriyotlari ham xuddi ular kabi xarakterli bo'ladi desak haqiqatga yaqinroq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining “Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi” asarida quyidagicha bayon qiladi: “Tarbiya go'daklikdan boshlanadi” [3.71], Ya'ni tarbiya uchun aynan bir yosh belgilanmagan. Bu qanchalik erta boshlansa, shunchalik o'z samarasini beradi desak nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Buni o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi, nasr janrida samarali ijod qilgan, hikoyaning otasi Abdulla Qahhor asarlarida ham uchratishimiz tabiiy. Adib dilbar hikoyalari bilan ko'plab kitobxonlarning mehrini qozongan. Jumladan, “Anor”, “Mayiz yemagan xotin”, “Bemor”, “O'g'ri” va yana boshqa ko'plab asarlari yosh-avlod uchun tarbiyaviy ahamiyatga egadir. “Ayb kimda?” hikoyasi hajm jihatdan qisqa, ammo, uning mazmuni g'oyatda buyukdir. “Ayb kimda?” hikoyasida asosiy uch obraz qatnashgan va asarning badiiy-estetik qiymati oshishiga sababchi bo'lgan. Bular Hamdam, uning otasi Hamroyev, onasi Sobiraxon ayalardir. Asar maktab o'quvchisi Hamdam ota-onasining majlisga chaqirilishi

bilan boshlanadi. Farzandining tarbiyasi buzilib ketayotganidan xavotirlanayotgan ota -ona hamma aybni o'qituvchiga yuklaydi. "Quruq ilm bilan bola bola bo'lar ekanmi?" [1.6]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qahhor Hikoyalar to'plami —Toshkent: Ilm-ziyo zakovat, 2023. — 128 b